

BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KREATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich

Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21736595>

Annotatsiya: Mazkur tezisda bo'lajak pedagoglarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari tahlil qilingan. Kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga yo'naltirilgan hamda fanlararo integratsiyaga asoslangan yondashuvlarning kreativ fikrlashni rivojlantirishdagi o'rni ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, kreativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar va innovatsion ta'lim texnologiyalarining samaradorligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: kreativ kompetensiya, bo'lajak pedagog, kompetensiyaviy yondashuv, fanlararo integratsiya, innovatsion ta'lim, refleksiya.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bo'lajak pedagoglarni zamonaviy kasbiy faoliyatga puxta tayyorlashni talab etmoqda. Ayniqsa, pedagogning kreativ kompetensiyasi ta'lim sifatini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Kreativ kompetensiyaga ega pedagog ta'lim jarayonini innovatsion tashkil eta oladi, muammoli vaziyatlarga nostandart yechimlar topadi hamda o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qodir bo'ladi [1;2].

Pedagogik tadqiqotlarda kompetensiya tushunchasi bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarning integratsiyalashgan tizimi sifatida talqin qilinadi. Kreativ kompetensiya esa mazkur tizimning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u pedagogning yangi g'oyalarni ilgari surishi, innovatsion texnologiyalarni qo'llashi hamda kasbiy muammolarni ijodiy hal etish qobiliyatini ifodalaydi. Bo'lajak pedagoglarda kreativ kompetensiyani shakllantirishda kompetensiyaviy yondashuv

alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvda ta'lim natijasi faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki ularni amaliy faoliyatda qo'llash darajasi bilan ham baholanadi. Natijada talabalar mustaqil qaror qabul qilish, kreativ pedagogik yechimlar ishlab chiqish va kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish kompetensiyalarini egallaydilar [3;5].

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi ham kreativ kompetensiyani rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. Mazkur yondashuv talabaning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bunday ta'lim muhiti talabalarning mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi va ijodiy faolligini rag'batlantiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarni fanlararo abstsessial hamda ordinal bog'liqlik asosida uyg'unlashtirish kreativ kompetensiyani rivojlantirish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Mazkur integrativ yondashuv bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini zamonaviy ta'lim talablariga mos ravishda takomillashtirish imkonini beradi [3;6].

Bo'lajak pedagoglarda kreativ kompetensiyani shakllantirishda faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv ham alohida pedagogik ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuvga ko'ra, talabalar nazariy bilimlarni tayyor holda o'zlashtirish bilan cheklanmaydi, balki ularni amaliy pedagogik faoliyatda qo'llash orqali yangi tajribalarni hosil qiladi. Natijada kreativ fikrlash, muammolarni hal qilish, pedagogik vaziyatlarni tahlil etish va innovatsion qarorlar qabul qilish kompetensiyalari izchil rivojlanadi.

Kreativ kompetensiyani rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Xususan, loyiha metodi, muammoli ta'lim, STEAM elementlari, kreativ keyslar, debatlar, "Brainstorming", "Design Thinking" hamda reflektiv mashg'ulotlar talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodlar orqali talabalar pedagogik muammolarni turli nuqtai nazardan tahlil qiladi, muqobil yechimlarni ishlab chiqadi va ularning samaradorligini asoslaydi [3;4].

Raqamli ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi kreativ kompetensiyani shakllantirish imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Elektron ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar, sun'iy intellektga asoslangan ta'lim vositalari hamda interaktiv resurslar talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini faollashtiradi, axborot bilan ishlash madaniyatini rivojlantiradi va kreativ fikrlashni rag'batlantiradi. Mazkur tadqiqotda kreativ kompetensiyani rivojlantirishning metodologik asosi sifatida fanlararo abstsessial va ordinal bog'liqlik tamoyillari taklif etiladi. Abstsessial bog'liqlik pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, axborot texnologiyalari va boshqa fanlar o'rtasidagi mazmuniy integratsiyani ta'minlaydi. Ordinal bog'liqlik esa talabanning kreativ kompetensiyasini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu ikki tamoyilning uyg'unligi bo'lajak pedagogning kasbiy tayyorgarligini kompleks rivojlantirish imkonini beradi [2;5].

Pedagogik tajriba-sinov natijalari shuni ko'rsatdiki, kreativ kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan integrativ mashg'ulotlar talabalarning kasbiy motivatsiyasini oshiradi, mustaqil fikrlashini faollashtiradi hamda innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorligini kuchaytiradi. Ayniqsa, fanlararo topshiriqlar, loyiha ishlari va refleksiv tahlil usullaridan muntazam foydalanish kreativ kompetensiyaning barcha tarkibiy komponentlarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikni namoyon etdi [4;7].

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, kreativ kompetensiyani shakllantirish uzluksiz va tizimli pedagogik jarayon bo'lib, u ta'lim mazmuni, metodlari, baholash tizimi va pedagogik muhitning o'zaro uyg'unligini talab qiladi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim muassasalarida kreativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodikalarni keng joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar kreativ kompetensiyani shakllantirish jarayonida refleksiv yondashuvning ham muhim o'rin tutishini ko'rsatdi. Refleksiya bo'lajak pedagogga o'z kasbiy faoliyatini tahlil qilish, mavjud kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqish hamda o'z ustida muntazam ishlash

imkonini beradi. Shu sababli refleksiv faoliyat kreativ kompetensiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi [4;6].

Tajriba-sinov ishlari davomida refleksiv kundaliklar, elektron portfolio, o'zaro baholash va ekspert baholash usullaridan foydalanish talabalarning kasbiy o'zini baholash ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirdi. Talabalar o'z faoliyatini tahlil qilish, pedagogik qarorlarning samaradorligini baholash hamda keyingi faoliyatini rejalashtirish bo'yicha yuqori natijalarni namoyon etdilar. Shuningdek, kreativ kompetensiyaning rivojlantirishda hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalarining ahamiyati ham yuqori ekanligi aniqlandi. Guruhlarda ishlash, jamoaviy loyiha faoliyati, ilmiy munozaralar va muammoli vaziyatlarni birgalikda hal etish jarayonida talabalar nafaqat yangi bilimlarni egallaydilar, balki o'zaro fikr almashish, dalillash, muqobil g'oyalarni ilgari surish va innovatsion qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini ham rivojlantiradilar [3;6].

Pedagogik tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, kreativ kompetensiyaning rivojlanishi talabaning ta'lim jarayonidagi faolligi bilan bevosita bog'liq. Faol ishtirok etgan talabalar pedagogik muammolarni tahlil qilish, fanlararo bog'lanishlarni aniqlash, kreativ g'oyalarni ilgari surish va amaliy faoliyatda qo'llash bo'yicha yuqori natijalarga erishdilar. Bu esa ta'lim jarayonini talaba markazli tamoyillar asosida tashkil etishning muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi [4;6].

Bo'lajak pedagoglarda kreativ kompetensiyaning shakllantirish zamonaviy pedagogik ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga yo'naltirilgan hamda refleksiv yondashuvlarni fanlararo abstraktsion va ordinal bog'liqlik tamoyillari asosida uyg'unlashtirish kreativ kompetensiyaning izchil rivojlantirish imkonini beradi. Mazkur yondashuv bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, innovatsion faoliyatga tayyorligini oshirish hamda oliy pedagogik ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5712-son Farmoni.
2. Abdullaeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik – didaktik asoslari. Ped. fan. dok. ... diss. – T.: TDPU, 2006. – 263 b.
3. Norbo'taev X.B. Maktab o'quvchilarida didaktik tafakkurni tabiiy fanlararo sinxron va asinxron aloqadorlikda rivojlantirish metodikasi (biologiya, kimyo, fizika o'quv fanlari misolida) pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. –T., 2021. -263 b.
4. Бикбаева Н.У. Бошланғич синфларда математика ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 2007. -208 б.
5. Jumaev M.E. O'qituvchining ijodiy shaxs sifatida rivojlanishida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-matematik tayyorgarligi. Monografiya. -T.: Fan, 2009. -240 b.
6. Xudoynazarov E.M., Xudayberganov G'.Q. va boshq. Boshlang'ich ta'limda kreativ fikrlash. O'quv qo'llanma. –T.: BOOKMANY PRINT. 2024. -207 b.

Кузовлева Н. Развитие методического мышления процессе профессиональной подготовки будущего учителя. Дисс. ... кан. пед. наук. – Липецк. – 233 с.